

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ABDUXALILOVA GULBAXOR KARABAYEVNA

TURIZM SOHASIGA OID LEKSIKANING LINGVOPRAGMATIK
ASPEKTI
(o‘zbek va ingliz tillari misolida)

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K 811.512.133’373:338.

48+811.111’373:338.48

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Abduxalilova Gulbaxor Karabayevna

Turizm sohasiga oid leksikaning lingvopragmatik aspekti (o‘zbek va ingliz tillari misolida)3

Абдухалилова Гулбахор Карабаевна

Лингвопрагматический аспект туристической лексики (на примере узбекского и английского языков).....25

Abdukhaliyeva Gulbahor Karabaevna

Linguopragmatic Aspect of Tourism-Related Lexicon (on the example of Uzbek and English languages)52

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works56

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ABDUXALILOVA GULBAXOR KARABAYEVNA

TURIZM SOHASIGA OID LEKSIKANING LINGVOPRAGMATIK
ASPEKTI
(o‘zbek va ingliz tillari misolida)

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3226 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengashi veb sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Teshabayeva Dilfuza Muminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Kadirkbekova Durdona Xikmatullayevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92, (e-mail: uzswlu_info@mail.ru))

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92,

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «___» _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi.)

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turli sohalarning maxsus leksikasini pragmatik va lingvomadaniy jihatdan o'rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Bunda e'tibor tilni tizim sifatida tilshunoslikda tilni inson ongida aks etgan borliqdagi voqea-hodisani ifodalash vositasi jihatdan o'rganishga qiziqish kuchaymoqda. Shu bilan birga, jamiyat taraqqiyotida ro'y berayotgan ilmiy-texnikaviy yutuqlar natijasida ishlab chiqarish, jumladan, sohaviy leksikaning nominativ maydoni sezilarli darajada kengaydi va soha leksikasi, maxsus terminologiyaning turli aspektlar bo'yicha tadqiqi nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida turizm sohasiga oid leksikani bir tomondan ilmiy terminologiya, ikkinchi tomondan umumxalq tili leksikasi bilan mutanosibligini ushbu soha, struktur-semantik va madaniy belgilari, uslubiy qo'llanish qonuniyatlari, pragmatik va lingvomadaniy o'ziga xosligi masalalarini yechish an'anaviy lingvistik tahlil usullari bilan birgalikda zamonaviy yangi metod va yondashuvlarni taqozo etmoqda. O'zbek tilshunosligida turizm sohasi leksikasi doirasida kasbiy termin va sohaviy leksikani tizimlash, ularni unifikatsiyalash, turizm sohasiga oid leksik qatlamni pragmatik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish, sohaviy leksikaning qo'llanilishi va rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni aniqlash ilmiy-nazariy zaruratga aylandi.

Mamlakatimizda turizm mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab iqtisodiy o'sishning muhim yo'nalishi sifatida belgilangan bo'lib, unga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor berilgan. Sohani rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratilgan, hukumat tomonidan tegishli qonun hujjatlari qabul qilingan va bu jarayon hozir ham faol davom etmoqda. Shunday ekan, turizmning milliy iqtisodiyotdagi roli va unga berilayotgan ustuvorlik kelajakda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, ayniqsa bugungi kundagi turli global chaqiriqlar sharoitida. Binobarin, bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy modernizatsiyalash jarayonida turizm sohasiga istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida alohida e'tibor qaratilayotgan ekan, sohaga oid lug'aviy birliklarning lisoniy xususiyatlarini tadqiq etish vazifasi dolzarblashadi. Zero, Shavkat Mirziyoyev "Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda"¹, deb ta'kidlagan. Mazkur dissertatsiya tilshunoslikning lingvopragmatika masalalariga tegishli bo'lib, mamlakatimizda deyarli yangi sohalardan bo'lgan turizm sohasiga oid leksikaning lingvopragmatik tadqiqiga bag'ishlanganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-sonli "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"dagi qarori,

¹ <https://sputniknews.uz/> (Murojaat sanasi: 9.03. 2024)

2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-noyabrdagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qaror va farmonlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-axloqiy rivojlantirishda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Soha leksikasi, unda termin va atamalarning lisoniy tavsifi A.Madvaliyev, A.Hojiyev, H.Yodgorov, Z.N.Aripova, D.M.Yo‘ldosheva, X.D.Paluanova, M.S.Axatova, S.X.Nurmatova, O.M.Po‘latova, G.Y.G‘ulomova, O.S.Axmedov, G‘.N.Arapov, E.J.W.Barber, S.V.Grinev -Grinevich² va boshqa tilshunos olimlar ishlarida yoritilgan.

Jahon tilshunosligida aynan turizm sohasi leksikasiga oid ilmiy izlanishlar M.A.Vinokurov, O.R.Bodorenko, Y.Y. Menshikova, N.V.Filatova, N.A.Tyulenova, S.A.Pogodayeva, O.P.Karebina, O.A.Bormotova, G.A.Shor, E.Koen, R.L. Kuper, A. Vilson, K. Terlou va A. Yavorskiy³ kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

²Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – С. 25.; Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 366 б.; Ёдгоров Х. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1996. – 163 б.; Арипова З.Н. Ўзбек тили мусикашунослик терминологияси. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – С. 26.; Ёўлдошева Д.М. Енгил саноат соҳасига оид терминларнинг инглиз, ўзбек, рус тилларидаги изоҳли луғати. – Тошкент: Янги нашр, 2021. – 208 б.; Палуанова Х.Д. Инглиз, ўзбек, рус ва қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион-семантик принциплари. Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 232 б.; Ахатова М.С. Ўзбек тилининг ёғочсозлик терминологияси. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2004. – С. 23.; Нурматова С.Х. Истоки формирования в функционирование астравакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тошкент, 2000. – С. 28.; Пулатова О.М. Ўзбек хореография терминологиясининг шаклланиш манбалари ва ривожланиши. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – С. 26.; Гуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиклол даври тараққиёти. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 57 б.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 256 б.; Арапов Ф.Н. Енгил саноат лексикасининг лингвимаданий аспекти (инглиз, ўзбек ва рус тиллари мисолида). – Термиз, 2023. – 142 б.; Barber E.J.W. Prehistoric Textiles. The Development of Cloth in the Neolithic and Bronze Ages with Special Reference to the Aegean. – Princeton: Princeton University Press, 1991. – P. 471.; Гринев-Гриневич С.В. Введение в терминоведение. – М.: Московский лицей, 1993. – 309 с.

³Винокуров М.А. Что такое туризм? // Известия Байкальского государственного университета. 2004, № 3. – P. 19-24.; Bondarenko O.R. Dominant properties of the English-language discourse of the tourism sector as the basis of the discursive competence of professionals // Herald Moscow State Linguistic University. – Moscow, 1012 No.5. – P. 64-74.; Меншикова Е.Е. Мифопоэтика рекламного туристического нарратива. Дисс. канд. филол. наук. – Архангельск, 2012. – 235 с.; Филатова Н. В. Дискурс сферы туризма в прагматическом и лингвистическом

O'zbek tilshunos olimlaridan N.I.Yakubova, N.T.Xodjayeva, Z.R.Sobirova, A.Sh.Xolboboyeva, Y.Yaxshiyeva⁴ va boshqalar o'z tadqiqotlarida turizm sohasi terminologiyasining umumiy muammolarini o'rta tashlaganlar. Mazkur tadqiqotlarda masalalar asosan bir til doirasida o'rganilgan bo'lib, tillararo, xususan, o'zbek va ingliz tillari misolida lingvopragmatik planda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Bu jihat tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyligini asoslaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti umumiy tilshunoslik kafedrasida "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz tillari turizm sohasiga oid leksik birliklarning struktur-semantik, derivatsion hamda pragmatik xususiyatlarini lingvomadaniy aspektida tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- turizm sohasiga oid leksikaning nazariy yondashuv asosida o'rganilish darajasini yoritish;
- turizm sohasiga oid leksikaning mavzuviy guruhlarini tavsiflash;
- turizm leksikasining struktur-semantik, derivatsion hamda lingvomadaniy xususiyatlarini yoritish;
- turizm leksikasining lingvopragmatik tahlili asosida ekspressivlik hamda lingvomadaniy xususiyatlarni belgilovchi omillarni aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi turizm sohasiga oid birliklar ishtirok etgan matnlar tanlangan.

Tadqiqot predmeti sifatida o'zbek va ingliz tillarida turizm sohasiga oid leksik birliklarning matnda qo'llanilishiga doir pragmatik, struktural-semantik, etimologik va lingvokulturologik xususiyatlari belgilangan.

аспектах. Дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2012. – 179 с.; Tyulenova N.A. Dissertation for the scientific title of Candidate of Philological Sciences. Linguocognitive strategies for positioning and promoting tourism services in Russian and Anglo-American advertising. – Omks, 2008, – 269 p.; Погодаева С.А. Языковые средства аргументации во французском туристическом дискурсе. Дисс... канд. филол. наук. – Иркутск, 2008. – 234 с.; Каребина О.П. Семантическая организация лингвистических и паралингвистических феноменов в текстах предметной области «Туризм». Дисс... канд. филол. наук. – Краснодар, 2008. – 191с.; Бормотова О.А. Шор Г.А. Туристический дискурс: основные аспекты. 2017. № 62. – Р. 235-239.; Маркова Е.И. Заимствованная лексика в сфере туризма // Молодой ученый. 2014. № 1 (60). – Р. 682-684.; Eric Cohen, Robert L. Cooper. Language and tourism // Annals of Tourism Research. Vol 13. No 4, 1986. – Р. 533-564.; Adam Wilson, International tourism and linguistic accommodation: Convergence towards and through English in tourist information interactions // French Journal of English Linguistics "Anglophonia" // DOI: 10.4000/anglophonia.1377. 2018.; Thurlow C., Jaworski A. Tourism discourse: Language and global mobility. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2010.

⁴Якубова Н.И. Тризмга оид ўзлашган терминларнинг лексик-семантик хусусиятлари. Фил. фан. б. фалсафа д-ри (PhD) дисс... Автореф. – Тошкент, 2023. – Б. 25-26.; Ходжаева Н.Т. Лексика туризма на английском и русском языках: лексическая семантика в туристических обзорах // Молодой ученый. 2021. № 49 (391). – Р. 478-480.; Собирова З.Р. Ўзбек ва инглиз тилларидаги туризм терминларининг типологияси, ўзаро берилиши ва лексикографик талқини. Фил.фан. б. фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. – Бухоро, 2021. – 168 б.; Холбобоева А.Ш. Туризмга оид рекламаларда риторик аспектининг чоғиштирма тадқиқи. Фил.фан. б. фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2022. – 173 б.; Яхшиева Я. Туризм лексикасида ўзлашмаларни ўрганиш муаммолари // Журнал иностранных языков и лингвистики. 2023. № 5 (5). – С. 28-34.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvistik tavsiflash usuli, komponent tahlil, pragmatik tahlil, lingvokulturologik tahlil, etimologik tahlil hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turizm sohasi leksikasining muayyan semantik ma'nolari, ularning mavzuviiy guruhlarini tasniflash orqali "Tog' turizmi", "Xazina izlash turizmi", "Apiturizm", "Safari turizmi", "Hordiq turizmi", "Sanoat turizmi", "Qabrtoshi turizmi", "To'y turizmi", "Biznes turizmi", "Kosmik turizm" kabi mikromaydonlarni hosil qilishi isbotlangan;

turizm sohasiga oid leksikaning derivatsion tamoyillari asosida affiksatsiya, suffiksatsiya va sirkumfiksatsiya yordamida yasaliş usullari samaradorligi isbotlandi, shuningdek, ularning sodda va murakkab turlari, so'z birikmasi va abbreviatsiya tarzidagi shakllari struktural jihatdan tasnifi hamda leksik-semantik xususiyatlari aniqlangan;

zamonaviy turizm sohasiga oid predmet, tarixiy hodisa, makon, inshoot, taom, jarayon nomlari kabi ma'noviy guruhlarini voqelantiruvchi leksik birliklar bilan bog'liq kontekstual xususiyatlar, jumladan, ma'no ko'chishi va turg'un birikmalar – iboralarning matnda ekspressivlikni oshirishdagi o'rni lingvopragmatik tahlil orqali asoslangan;

turizm sohasiga oid leksikaning milliy-madaniy xususiyatlari bo'yoqdorlik darajasi qadimiylilik, tarixiylilik, va milliylik belgilarini o'zida aks ettirishi umumiylik va xususiylilikni belgilovchi realiyalar orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

– turizm leksikasini lingvopragmatik yondashuv asosida tadqiq qilish modeli ishlab chiqildi;

– turizm leksikasining etimologik, leksik-semantik, o'zlashma qatlamlarining xususiyatlarini tasniflash mezonlari yoritildi;

– turizm leksikasining turizm sohasidagi matnlarda ekspressivlik ko'rsatkichlari aniqlandi;

– turizm leksikasining milliy-madaniy va lingvopragmatik xususiyatlarini belgilovchi omillar bayon qilindi;

– turizmga oid atama va terminlarning inglizcha-o'zbekcha-ruscha lug'ati yaratildi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning qat'iyligi, qo'llanilgan yondashuv va metodlar hamda ularning nazariy asoslari, ingliz va o'zbek tillaridagi lug'atlari, turizmga oid reklama matnlaridan olingan misollar tahlilining o'zaro muvofiqligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tillarida turizm leksikasining lingvopragmatik aspekti va o'rganilayotgan leksik birliklarning semantik va etimologik xususiyatlari ochib berilganligi bilan belgilanadi. Dissertatsiyada keltirilgan nazariy xulosalar til nazariyasi yo'nalishda soha leksikasi va terminologiyasining lingvopragmatik hamda lingvokulturologik tadqiqida nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan

umumiy tilshunoslik, pragmatika, lingvomadaniyatshunoslik, leksikologiya, matn tahlili bo'yicha ma'ruza kurslari, seminar mashg'ulotlarini ishlab chiqish hamda olib borishda, dissertatsiya ishlari, monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar yozish, lug'atlar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turizm sohasi leksikasining pragmatik jihatdan o'xshash va o'ziga xos xususiyatlarining tadqiqi yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy takliflar, amaliy tavsiyalar va xulosalar asosida:

turizm sohasi leksikasining muayyan semantik ma'nolari, ularning mavzuviy guruhlarini tasniflash orqali "Tog' turizmi", "Xazina izlash turizmi", "Apiturizm", "Safari turizmi", "Hordiq turizmi", "Sanoat turizmi", "Ziyorat turizmi", "To'y turizmi", "Biznes turizmi", "Kosmik turizm" kabi mikromaydonlarni hosil qilishi bilan bog'liq ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy-ma'rifiy muassasalar nomoddiy milliy merosini rivojlantirish sho'basidan o'zbek xalqining boy milliy til an'analari, nomoddiy madaniy merosi, ijtimoiy qadriyatlarimizning millatlararo munosabatlarini yo'lga qo'yish va aloqalarni mustahkamlash borasida amalga oshirilgan "Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirish" nomli fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 25-sentyabrdagi 01-12-06-783-son ma'lumotnomasi). Natijada turizm sohasi bilan bog'liq predmet, tarixiy hodisa, makon, inshootlar, taomlar va jarayonlar, ularni voqealantiruvchi leksik birliklarning pragmatik belgilari haqidagi ilmiy-metodik tavsiyalar loyiha ishlanmalarining takomillashuviga xizmat qilgan;

turizm sohasiga oid leksikaning derivatsion tamoyillari asosida affiksatsiya, suffiksatsiya va sirkumfiksatsiya yordamida yasaliş usullarining samaradorligi, ularning sodda va murakkab turlari, so'z birikmasi va abbreviatsiya tarzidagi shakllari struktural jihatdan tasnifi hamda leksik-semantik xususiyatlari aniqlangani; zamonaviy turizm sohasiga oid predmet, tarixiy hodisa, makon, inshoot, taom, jarayon nomlari kabi ma'noviy guruhlarini voqealantiruvchi leksik birliklar bilan bog'liq kontekstual xususiyatlar, jumladan, ma'no ko'chishi va turg'un birikmalar – iboralarning matnda ekspressivlikni oshirishdagi o'rni va pragmatik xususiyatlari asoslangani borasidagi ilmiy xulosa va nazariy umumlashmalardan "Xorazm tarixi va madaniyati doimiy ekspozitsiyasi" muzeyida foydalanilgan (Xorazm Ma'mun akademiyasining 2024-yil 24-sentyabrdagi 26/1-24-son ma'lumotnomasi). Natijada turizm sohasiga oid leksikaning milliy-madaniy xususiyatlari, shuningdek, ilmiy-metodik tavsiyalar turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun muhim manba sifatida xizmat qilgan;

turizm sohasiga oid leksikaning milliy-madaniy xususiyatlari bo'yoqdorlik darajasi qadimiylilik, tarixiylilik, va milliylik belgilarini o'zida aks ettirishi umumiylik va xususiylilikni belgilovchi realiyalar orqali dalillangani xususidagi taklif va mulohazalardan "O'zbekiston teleradiokanali"da efirga uzatiladigan "Assalom, O'zbekiston!", "Yurtim jamoli" kabi turkum ko'rsatuvlarida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 2-oktyabrdagi 06-28-941-son ma'lumotnomasi). Natijada

teletomoshabinlar globallashuv jarayoni ta'sirida shakllangan turizm sohasi bilan bog'liq leksik birliklarning pragmatik belgilaridan unumli foydalanish, jumalarni publitsistik nutqda samarali ifodalash to'g'risida muhim ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 16 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, (3 tasi xorijiy ilmiy nashrlarda, 16 tasi respublika nashrlarida), shu jumladan 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 121 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti shakllantirilgan, ishning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Turizm sohasiga oid leksikaning ilmiy-nazariy muammolari”** deb nomlangan birichi bobida turizm leksikasini tadqiq qilishning dolzarbligi masalalari yoritilgan. Tadqiqotda o'rganilgan masalalar globallashuv jarayonida turizm sektorining kengayishi va bu turli tillarda so'zlashuvchi kishilarning o'zaro to'g'ri va aniq muloqot qilishlariga zamin yaratishi bilan dolzarbdir. Bugungi kunda davlatlar iqtisodiyoti va jamiyat taraqqiyotida turizm bilan bog'liq siyosat muhim rol o'ynaydi. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da turizm tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: 1. Ham dunyoni ko'rish, bilish, o'rganish, ham dam olish maqsadida tashkil etiladigan sayr-sayohat. 2. Organizmni jismoniy chiniqtirish maqsadida uyushtiriladigan jamoaviy yurishlar, safarlar”⁵. Ko'rinadiki, lug'atlarda turizm va sayohat tushunchalari o'zaro uyg'unlik hosil qilgan.

“O'zbek tilining qomusiy lug'ati”da esa **TURIZM** – jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy va boshqa maqsadlarda borilgan joyda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga sayohat qilish⁶ degan ta'rif berilgan.

Turizm leksikasini o'rganish barobarida sohaga oid terminlar tahliliga bevosita to'xtalamiz. “Termin tilning leksik sathining ajralmas uzviy qismi bo'lib, u o'zining ichki semantik tarkibida katta axborot hajmini saqlash bilan boshqa so'zlardan farqlanishi va umumiste'moldagi ko'p ma'noli so'zlar muayyan soha

⁵ <https://izoh.uz/uz/word/turizm> (Murojaat sanasi: 20.01.2023)

⁶ <https://qomus.info>. (Murojaat sanasi: 22.01.2023)

terminologiyasiga ko'chganida faqat bir ma'noni anglatib, terminlik vazifasini bajara boshlaydi"⁷.

V.P.Danilenko termin tushunchasini "sohaga tegishli bo'lgan, definisiyaga asoslangan maxsus tushunchani anglatuvchi so'z va so'z birikmasi"⁸dan tarkib topadi deb ta'kidlagan. Shuningdek, F.Qodirova o'z qarashlarida adabiy tilga tegishli bo'lgan muayyan so'z semantik o'zgarishga uchrashi natijasida biror terminologik tizimga mansub bo'lib qolishi mumkinligini ham qayd etgan⁹. Ko'rinadiki, terminlar adabiy til tarkibida muayyan sohaga tegishliligi bilan ma'lum semantik turkumga mansublik hosil qiluvchi lug'aviy birliklardir. Turizm sohasi leksik bilrliklari ham alohida turkum terminologiyasi sifatida farqlanadi.

Turizm terminlari – turizm sohasida iqtisodiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari o'zining maxsus qirralarida hamda uning maxsus sohasini, inson faoliyatining umumiy qonuniyatlarini namoyon qiluvchi hamda turistik tashkilotning aniq faoliyati, turistik mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol qilish xususiyatlarini nomlash uchun qo'llaniladigan maxsus so'z va so'z birikmalaridir.

Turli tizimli tillar lug'at tarkibi, xususan, turizm terminologiyasi ham farqlanadi. Ularni qiyosiy planda o'rganish juda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, o'zbek va ingliz tillari turizm terminlarini o'zaro qiyosiy tadqiq etish sohaga oid tushunchalar aniqligi, shu bilan birga globallashuviga xizmat qiladi. O'zbek va ingliz tillaridagi turizm terminlariga quyidagilarni misol qilish mumkin:

turizm industriyasi – tourism industry

turoperator – tour operator

turagentlik – travel agency

mehmonxona xo'jaligi – hotel industry

arxitektura yodgorligi – architectural monument

xalqaro turizm – international tourism

Zamonaviy tilshunoslik nazariyalariga tayangan holda aytish mumkinki, turizm leksikasining pragmatik aspekti yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy nazariya va konsepsiyalar terminologiya sohasida butunlay yangi yondashuvlarni tashkil etadi. Terminlarning, ya'ni sohaviy leksikaning pragmatik jihati deganda, birinchi navbatda, terminologiyani bir tadqiqot sohasidan boshqasiga ko'chirish tendensiyasi va shu bilan birga, terminologik metaforalarning ekspressiv ta'sir doirasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

F.Akbarxadjayeva terminlar doirasida kuzatiladigan metafora hodisasini quyidagicha izohlaydi: "Metafora, ayniqsa, maxsus sohaviy terminologiyada alohida ahamiyat kasb etadi. Metaforizasiyalash jarayonida fan tilida termin sifatida qo'llanadigan metaforalar ilmiy terminologiya shakllanishida muayyan rol

⁷ Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фанл. докт. ...дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 21.

⁸ Даниленко В.П. Лексико-семантические и грамматические особенности слов-терминов // Исследование по русской терминологии. – М.: Русский язык. – 1971. №1. – С. 64-71.


⁹Қодирова Ф.Ш. Инглиз ва ўзбек тилларидаги тасвирий санъат ва дизайнга оид терминларнинг лингвокультуралогик хусусиятлари: Фил.фан.б.фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 23.

o‘ynaydi”¹⁰. Ko‘rinadiki, terminologik birliklar metaforizatsiyasi tilda yangi imkoniyatlar va pragmatik-semantik xususiyatlarni namoyon etadi. Pragmatik yondashuv turistik mavzuga oid matnning muloqot maqsadi va ifoda nuqtayi nazaridan tahlil qilishni anglatadi. Bu yondashuv turizm sohasida muloqot, til birliklarining maqsadli qo‘llanilishi, mehmonxona, restoran, yo‘lboshchi (gid) kabi xizmat ko‘rsatuvchi sohalarda samarali muloqot usullari va strategiyalarini o‘rganadi.

Turizm sohasi leksikasi tizimi tarkibini mavzuviiy guruhlash mumkin. Bunda sohaviy leksika semantikasi va lingvistik ifodasi alohida e‘tiborga olinadi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar sabab turizm sohasi boshqa ko‘plab tarmoqlarni ham o‘z tarkibiga qo‘shib bormoqda, buning barobarida, turizm sohasi turlari ko‘lami kengayib, safar hamda sayohatlar maqsadi va xususiyatiga ko‘ra uning yangi turlari paydo bo‘ldi. Bugungi kunda turizmning quyidagi mavzuviiy guruhlari farqlanadi:

1-chizma. Turizm sohasi mavzuviiy guruhlari



Bu mavzuviiy guruhlar o‘z ichida yana qator turlarga bo‘linadi. Shu asosda mazkur terminosistemani quyidagi kichik tarkibiy guruhlarga ajratish mumkin:

1. Sarguzashtlarga boy turizm (*Adventure tourism*) – Tog‘ turizmi (*Mountain tourism*), Xazina izlash turizmi (*Treasure hunting tourism*);
2. Biznes turizmi (*Business tourism*) – Xizmat safari turizmi (*MICE tourism*), Sanoat turizmi (*Industrial tourism*);
3. Qora turizm (*Dark tourism*) – Qabr toshi turizmi (*Tombstone tourism*), Xalokat turizmi (*Disaster tourism*);


¹⁰ Акбархаджаева Ф.А. Тиббиёт соҳасига оид ўзлашма терминларнинг лингвостатистик тадқиқи. (лотин тилидан рус ва ўзбек тилларига ўзлашган терминлар мисолида). Фил.фан.б. фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 104.

4. Hordiq turizmi (Leisure tourism) – Xarid uchun sayohat (*Shopping tourism*), Shahar sivilizatsiyasidan baxra olish maqsadidagi sayohat (*Urban tourism*), Oila va qarindoshlarini ko‘rish uchun sayohat (*VFR (visiting family and relatives) tourism*), Sport turizmi (*sport tourism*):

Ko‘rinadiki, turizm sohasi yo‘nalishlari paradigmasi boy va qiziqarli mundarijaga ega. Unga tegishli bo‘lgan lug‘aviy birliklarni mavzuviy tasniflash va izchil tartibga solish soha faoliyatida aniqlik va oson tushunishni ta‘minlaydi.

Dissertatsiyaning “**Turizm sohasiga oid leksikaning derivatsion tamoyillari**” deb nomlangan ikkinchi bobida turizm leksikasining derivatsion va struktur xususiyatlari o‘rganilgan. Ma‘lumki, ingliz tilida so‘z yasashning asosiy usuli bu affiksatsiya sanaladi. Turizm sohasiga oid leksemalar tarkibida ham affikslar orqali hosil qilingan so‘zlar miqdori yuqori. Tilshunoslikda so‘z yasashining ushbu sermahsul usuli keng o‘rganilgan. Xususan, I.V.Arnold, S.V.Grinev-Grinevich, L.L.Grafova, S.M.Paley, V.I.Zabotkina, Y.S.Kubryakova, A.A.Reformatskiy kabi olimlarning tadqiqotlarida yasama so‘zlarning lingvistik xususiyatlari ilmiy asoslangan¹¹. Turizm sohasi leksikasini so‘z yasashi nuqtayi nazardan tahlil qilish mobaynida so‘z yasash usullarining asosiy turlari to‘rt turga bo‘linishi aniqlandi:

2-chizma. So‘z yasash turlari



Ushbu usullarning har birida turizm sohasiga oid qator leksik birliklar hosil qilinadi va struktural jihatdan bir-biridan farqlanadi. O‘rganilayotgan soha leksikasi va terminologiyasi doirasida asosan quyidagi usullar yordamida so‘z yasalganligiga guvoh bo‘ldik.

¹¹Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М. 2012. – С. 37.; 2. Графова Л.Л., Палей С.М. Англо-русский таможенный словарь. – М. 2010. – 784 с.; 3. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. – М., 2008. – 304 с.; 4. Заботкина В.И. Новая лексика современного английского языка. – М., 1989. – 128 с. 5. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений: семантика производного слова. М., 1981. – 200 с. 6. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М., 2005. – 536 с.

1-jadval. Turizmga oid soʻzlarning yasash usullari

Morfologik usul		Misollar
Affiksatsiya	Suffikslar yordamida	ingl.: <u>waiter</u> , <u>greeter</u> , <u>merriment</u> , <u>package</u> , <u>guidance</u> <u>employee</u> , <u>cooking</u> , <u>reception</u> : oʻzb.: <u>sayohatshunos</u> , <u>oromgoh</u> , <u>sayilgoh</u> , <u>sayohatchi</u> , <u>ijarachi</u> , <u>isteʼmolchi</u> :
	Prefikslar yordamida	ingl.: <u>em</u> bus, <u>en</u> plane, <u>im</u> port, <u>il</u> legal, <u>up</u> grade, <u>under</u> ground, <u>dis</u> order, <u>re</u> book, <u>under</u> pay: oʻzb.: <u>bi</u> oturizm, <u>eko</u> turizm:
	Sirkumfikslar yordamida	ingl.: <u>unde</u> veloped, <u>over</u> crowded, <u>un</u> employment, <u>co</u> worker, <u>re</u> placement, <u>miss</u> pelled: oʻzb.: <u>bio</u> xilma-xilliksiz, <u>eko</u> turizmchi, <u>bi</u> oturizmchi:
Sintaktik usul		Misollar
Ikki komponenti ham tub otlardan iborat boʻlgan soʻzlar		ingl.: <u>travel bureau</u> , <u>floor maid</u> , <u>travel map</u> , <u>babymoon</u> , <u>cargo boat</u> , <u>redcap seafood</u> , <u>homebody</u> : oʻzb.: <u>yashil turizm</u> , <u>ijara uy</u> , <u>virtual sayohat</u> , <u>qora turizm</u> :
Ikkinchi komponenti suffiksli boʻlgan soʻzlar		ingl.: <u>holidaymaker</u> ; <u>backpacker</u> , <u>globetrotter</u> , <u>outfitter</u> , <u>event organizer</u> :
Qisqartirish orqali soʻz yasash usuli		Misollar
Kliping – koʻp boʻgʻinli soʻzdan bir yoki bir nechta boʻgʻinlarni olib tashlab, yangi soʻz hosil qilish		<u>automobile</u> – <u>auto</u> - avtomobil <u>airplane</u> – <u>plane</u> – samolyot <u>advertisement</u> – <u>ad</u> – reklama <u>apartment hotel</u> – <u>aparthotel</u> – kvartira <u>koʻrinishidagi mehmonxona</u> <u>dormitory</u> – <u>dorm</u> – talabalar yotoqxonasi <u>caravan</u> – <u>van</u> – karavan <u>fanatic</u> – <u>fan</u> – muxlis <u>memorandum</u> – <u>memo</u> – memorandum <u>vacation</u> – <u>vac</u> – taʼtil
Abbreviatsiya – bosh harf qisqartmasi. Soʻz yoki iboraning bosh harflaridan yangi soʻzlarni tashkil topishi		PIR – <u>Property Irregularity Report</u> (Aeroportda yuk yoʻqolganda uni tavsiflovchi bayonnoma); DMC – <u>Destination Marketing Company</u> (Sayohatgohlarni reklama qiluvchi kompaniya); OTA – <u>Online Travel Agency</u> (Online sayohat agentligi), UNWTO – <u>United Nations World Tourism Organization</u> (Butun jahon sayyohlik tashkiloti) ¹² .
Blending – ikkita alohida mustaqil komponentlarning qoʻshilmasidan yaxlit yangi soʻzning hosil boʻlishidir. Odatda birinchi soʻzning birinchi boʻgʻini va uni		<u>Brunch</u> (<u>breakfast</u> + <u>lunch</u>) – kechikkan nonushta <u>Botel</u> (<u>boat</u> - <u>hotel</u>) – kema-mehmonxona

¹² <https://www.vocabulary.com> (Murojaat sanasi: 30.04.2024)

ikkinchi soʻzning oxirgi boʻgʻiniga qoʻshish orqali hosil qilinadi.	<i>Motel (motor + hotel) – yoʻl yoqasidagi mehmonxona</i> <i>Globish (global + English) – global ingliz tili</i> <i>Staycation (stay+at+home+vacation) – uyda yoki uyga yaqin boʻlgan joyda dam olish</i> <i>Alcoholiday (alcohol+holiday) – spirtli ichimlik ichib dam olish</i>
---	--

Har ikkala tilda ham soʻz yasashda affiksatsiya usuli samarali hisoblanadi. Umumisteʼmoldagi soʻzlarning terminga aylanishidan sodda terminlarni hosil qiladi. Terminlarning semantik usul bilan yasalishi “oddiy soʻzlashuv nutqiga xos soʻzga maxsus yoki ilmiy mazmun berilishidir”¹³.

Sodda tub terminlarni noyasama terminlar sifatida ham qayd etish mumkin. Terminga aylanayotgan umumadabiy tildagi soʻzlar faqat muayyan terminologik maydondagina termin boʻlib kela oladi. Terminologik maydondan tashqarida ular terminlik xususiyatini yoʻqotadi¹⁴, yaʼni determinatsiya hodisasiga uchraydi. Masalan, oʻzbek tilida: *sayohat, gid, yoʻnalish, chipta, ekskursiya, safar, manzil, tur, aeroport, plyaj* va h.k. Ingliz tilida: *flight, visa, tour, map, port, resort, ticket, guide, luggage, park, restaurant, hostel, travel* va h.k.

Qoʻshma soʻzlardan yasalgan turli komponentlarning oʻzaro birikuvi kompozitsiya usuli, yaʼni kompozit usul¹⁵ deb ham nomlanadi.

Oʻzbek tilida qoʻshma va murakkab leksemalar asosan oʻzlashgan qatlamda kuzatiladi. Masalan, *apart-otel, butik-mehmonxona, aviakompaniya, turagent, biznesklass, turlider, avtoturizm, agroturizm, taymsher, avtovoksal, avialiniya, mehmonxona, oshxona, kixona, qabulxona, choyxona, chillaxona, rasadxona, karvonsaroy* va h.k.

Ingliz tilida qoʻshma soʻzlarga quyidagilar misol boʻladi: *travel guide, travel insurance, flight schedule, holiday resort, cruise ship, sightseeing tour, tourist visa, travel agent, adventure travel, business travel, luxury hotel, tour guide, backpacker hostel, car rental, tour bus, cultural tour, family vacation, travel companion, hotel reservation, fullboard, halfboard, stopover, budget accommodation, time-share, eco-tourism, code-share travel itinerary* va h.k.

Oʻzbek tilida soʻz birikmasi holatidagi terminlarga: *sayohat agentligi, sayohat sugʻurtasi, mehmonxona xizmatlari, tranzit yoʻlovchi, mavsumiy tur, inklyusiv tur, tabiat qoʻriqxonasi, ochiq havoda dam olish, oziq-ovqat sayohati, sayohat xaritasi, togʻ dam olish maskani, halol turizm, turistik markaz, qora turizm, xalqaro turizm, madaniy meros, virtual sayohat, yashil turizm, avtomashina ijarasi, sayohat yoʻnalishi* kabilar misol boʻladi.

¹³ Хан-пира Э.И. О терминах и терминологии // Русский язык в национальной школе. – М., 1985. -№ 4. – С. 11-18.

¹⁴Қодирова Ф.Ш. Инглиз ва ўзбек тилларидаги тасвирий санъат ва дизайнга оид терминларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Фил.фан.б.фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 62.

¹⁵ Каримов Ш.Б. Структурно-семантический анализ авиационных терминов в таджикском и английском языках. Дисс...канд.филол. наук. – Душанбе, 2013. – Б. 87.

Tadqiqot jarayonida turizm terminlarining ko'p qismini ikki komponentli terminlar tashkil qilishi ma'lum bo'ldi. Turizm sohasida miqdor jihatdan birikma shaklidagi terminlarning quyidagi turlari aniqlandi:

2-jadval. Birikma shaklidagi terminlar

Ikki komponentli	Uch Komponentli	To'rt komponentli	Besh komponentli
65%	25%	20%	10%
Sayohat agentligi	Turistik xizmatlar to'plami	Turoperatorlar va sayohat agentliklari	Mehmonxona va restoran xizmati sifati
Mehmonxona xizmati	Sayyohlik yo'nalishlari xaritasi	Ziyorat turizmini rivojlantirish agentligi	Sayohat va turizmning xavfsizlik choralari
Turistik paket	Mehmonxona rezervatsion tizimi	Turistik xizmatlar marketingi strategiyasi	Sayyohlik va transport xizmatlari tizimi
Yo'lovchi poyezd	Aeroport transport xizmati	Xalqaro sayyohlikni rivojlantirish dasturi	Xalqaro sayohat va turizm kompaniyalari
Aeroport terminali	Yo'lovchi poyezd chiptasi	Turistik joylar uchun gid	Turistik joylar boshqaruvi va marketingi

Ingliz tili dunyoning boshqa tillaridan so'zlarni o'zlashtirishi hisobiga lug'at boyligining ko'lamini bo'yicha eng yuqori o'rinda turuvchi tillardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ingliz lug'atlaridagi sof inglizcha so'zlar 30 foizni tashkil qilsa, qolgan 70 foizi boshqa tillarga to'g'ri keladi¹⁶.

Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni yillar davomida ingliz tili strandartlariga to'liq moslashib ketgan o'zlashmalar guruhi to'liq assimilyatsiyalashgan so'zlar deb ataladi¹⁷. Bunday to'liq assimilyatsiyalashgan so'zlarni turizmning hordiq, oziq-ovqat sanoati va restoran biznesi kabi yo'nalishlarida ham uchratish mumkin. Ular, asosan, nemis, fransuz, italyan va ispan tillaridan o'zlashgan¹⁸:

Xususan, o'zbek tilida ham chet tillardan o'zlashgan so'zlarning salmog'i yuqori bo'lib, bu so'zlar asosan quyidagi tillardan o'zlashgan:

¹⁶ Атажанова З.М. The main sources of enriching English vocabulary in the course of historical development // Молодой ученый, 2021. № 4 (346). – С. 298-300. <https://moluch.ru/archive/346/77762/> (Murojaat sanasi: 29.04.2024).

¹⁷ Шербоев Н. Инглиз тилидаги шарқ тилларидан ўзлашган сўзларнинг семантик хусусиятлари // Экономика и социум. № 6 (86), 2021. – Б. 257.

¹⁸ Айрапетян А.Г. Испанские заимствования в английском языке // Молодой ученый. - 2016. № 7 (111). - С. 1132-1134. <https://moluch.ru/archive/111/27670/> (Murojaat sanasi: 19.03.2023). Элдаров А.М. Итальянское заимствования в современном английском языке: Автореферат. – Россия, 1984. Мжельская О.К. Английский язык как источник реципиент лексических заимствований // Филологические науки. – Россия, УДК 811.111. 2017. – С. 60-64.; Соколова А.А. Французское заимствование в английском языке // Цифровая наука. 2021. № 4. – С. 21-24.

3-jadval. O‘zbek tilida chet tillardan o‘zlashgan so‘zlar

Nemis	Ispan	Ingliz	Fransuz	Italyan
Kruiz (Kruise)	Bodega (bodega)	Kovorking (co-working)	Restoran (restaurant)	Alfresko (alfresco)
Doller (Dollar)	Kabana (cabana)	Keytering (catering)	Galereya (galerie)	Kazino (casino)
Gastarbayer (Gastarbeiter)	Embargo (embargo)	Gid (guide)	Delikates (délicatesse)	Getto (ghetto)
Kurort (Kurort)	Fiesta (fiesta)	Hostel (hostel)	Bagaj (bagage)	Graffiti (graffiti)
Hinterland (Hinterland)	Kargo (cargo)	Viza (visa)	Fors major (force majeure)	Opera (opera)
Obelisk (Obelisk)	Kafeteriy (cafeteri’a)	Aeroport (airport)	Pasport (passeport)	Tarif (tariff)
Ryukzak (Rucksack)	Patio (patio)	Dyutifri (duty-free)	Shato (château)	Parad (parade)
Bankomat (Bankautomaten)	Plaza (plaza)	Kemping (camping)	Voyaj (voyage)	Riv’era (riviera)
Lager (Lager)	Siesta (Siesta)	Turist (tourist)	Tur (tour)	Arxipelag (Archipelago)
Shlagbaum (Schlagbaum)	Barbekyu (Barbacoa)	Otel (hotel)	Eskursiya (excursion)	Studiya (studio)
Vanderlast (Wanderlust)	Tornado (Tornado)	Rezort (resort)	Turizm (tourisme)	Vulkan (volcano)

O‘zbek tili turizm sohasiga oid leksemalar tarkibida o‘zlashma so‘zlar talaygina. Bunda, ayniqsa, ingliz tilidan yaqin 10-20 yil oraliq‘ida o‘zlashgan so‘zlar miqdori ko‘p. O‘zlashma so‘z va shakllarning asosiy xususiyati shundaki, ularning semantik mundariyasi murakkab bo‘lib, ko‘pincha, ularni bir so‘z bilan tushuntirish imkoni mavjud bo‘lmaydi. Masalan: “*Voucher*” – turistik xizmatlar uchun to‘lov qilinganini tasdiqlovchi hujjat. Bu hujjat mijozga xizmatlardan foydalanish huquqini beradi. *All-inclusive* – lug‘aviy jihatdan “hammasi kiritilgan” degan ma’noni bildirib, bu xizmat turi doirasida turar joy, ovqatlanish, ichimliklar va ba’zi xizmatlar (masalan, sport mashg‘ulotlari yoki ekskursiyalar) umumiy to‘lov tarkibiga kiritilgan bo‘ladi.

Adabiyotlarda semantik usul orqali termin hosil qilishda umumiste’moldagi so‘zlar va metaforaning o‘rni beqiyosligi ta’kidlangan. Zero, muloqotda faol qo‘llanilgan so‘zlarning muayyan xususiyatini, ya’ni ma’lum bir jihatdan o‘xshashlikni, misol uchun, rang-tusidagi o‘xshashlikni asos qilib olish yo‘li bilan yangi terminlar vujudga keladi: o‘zbek tilida: *oltin plyaj* (*chiroyli va qumli plyaj*), *yashil sayohat* (*eko-turizm*), *quyuq o‘rmon* (*tropik o‘rmonlar*), *moviy dengiz* (*tinch va toza dengiz*), *qizil kanyon* (*rangli kanyonlar*); ingliz tilida: *golden beach*

(*beautiful and sandy beach*), *silver sun (beautiful sunrise or sunset)*, *green travel (eco-tourism)*, *dense forest (tropical forests)*, *blue sea (calm and clear sea)*, *red canyon (colorful canyons)*.

Turizm terminlarini umumiste'mol so'zlaridan yasalishining lingvistik xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin:

1) umumiste'moldagi stilistik jihatdan neytral bo'lgan jarayon yoki holatni anglatuvchi so'zlarning terminlashuvi: o'zbek tilida: *sayr, dam olish, mehmonxona, joy, maskan, tomosha, hordiq, dengiz, okean, go'zal manzara, ovqatlanish, oziq-ovqat, xizmat, yordamchi, xizmat qilmoq*; ingliz tilida: *hiking, rest, manual, room, guest, leisure, sea, ocean, landscape, view, service, maid, assistant, serving, eating-out*.

2) turizm faol qo'llaniladigan predmet va narsalar nomini anglatuvchi so'zlarning terminlashuvi: o'zbek tilida: *langar, mo'yqalam, ko'priq, yotoqxon, chamadon, poyezd, avtomobil, xarita, qayiq, lager, chodir*; ingliz tilida: *suitcase, map, boat, car, train, anchor, brush, bridge, tent, camp*.

3) jonivor nomini anglatuvchi umumiste'moldagi so'zlarning turizm atamalarida qo'llanilishi: o'zbek tilida: *Qoplon yo'li* – Afrikadagi mashhur yo'llardan biri bo'lib, turistik marshrut sifatida tanilgan. *Jayron soyi* – soy yoki daryo yoqasi nomi sifatida ishlatiladi, sayyohlar uchun dam olish maskani hisoblanadi. *Ilon darasi* – dara yoki yo'llarning nomi sifatida ishlatiladi, piyoda sayohat va tabiat kuzatuvlari uchun mo'ljallangan. Ingliz tilida: *Safari* – Afrikada hayvonlarni ko'rish uchun qilinadigan sayohatlarni ifodalaydi. Umumiy so'z sifatida hayvonlar safari, safari park kabi iboralarda qo'llaniladi. *Gorilla Trekking* – gorillalarni tabiiy yashash joylarida kuzatish uchun qilingan sayohatlar. Bu termin ko'pincha Afrikaning tog'li hududlarida qilinadigan maxsus sayohatlarni ifodalaydi. *Dolphin Tour* – delfinlarni kuzatish uchun amalga oshiriladigan turistik ekskursiyalar ma'nosida ishlatiladi. Unda delfinlarning suzib yurishlari yoki ular ishtirokidagi maxsus tomoshalarni kuzatish mumkin bo'ladi. *Bear Viewing* – ayiqlarni tabiiy muhiti ichida kuzatish uchun qilingan sayohatlar ma'nosini bildiradi. Ushbu termin ko'p hollarda Shimoliy Amerika va Kanada kabi hududlarda qo'llaniladi. *Penguin Watching* – pingvinlar va ularning tabiiy yashash joylarida ularni kuzatish maqsadida qilingan ekskursiyalar. Bu termin ko'pincha Antarktika va Janubiy Afrika hududlarida ishlatiladi. *Big Five Safari* – Afrikada eng yirik beshta yovvoyi hayvonlarni (fil, arslon, leopard, buyvol va karkidon) kuzatish uchun qilingan safari sayohatlari hisoblanadi. Ko'rinadiki, turizmga oid terminologiya xilma-xil va qiziqarlidir. Uning semantik tasnifini mukammal tarzda ishlab chiqish tilshunoslikning lug'atshunoslik sohasini boyitadi.

“**Turizm leksik tizimining lindvopragmatik aspekti**” deb nomlangan uchinchi bobda terminlarning an'anaviy ilmiy konseptual birlik sifatida qabul qilinishidan ularning lingvistik va kognitiv jihatlarini tan olinishiga o'tish kuzatilgan. Terminlarning lingvistik mohiyatini anglash leksiko-semantik usulni terminologik tizimlarni o'rganishda qo'llash orqali rivojlanadi. Turizmga oid matnlarda metaforaning funksiyalari quyidagilar ekanligi kuzatildi. Masalan, «*Hissiy ta'sir*» – metafora sayyohlarda sayohat maskanlari va turistik mahsulotlar

to'g'risida oldindan kuchli tasavvur va his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bu esa berilayotgan takliflarni yanada jozibador qiladi.

Murakkab va ko'p qirrali turizmga oid tushunchalar metaforalar orqali ta'sirli, y'ani ekspressiv tarzda taqdim etiladi. Masalan, "kruiz layneri"ni "suzuvchi shahar" deb atash kruiz sayohatlarining miqyosi va imkoniyatlarini ta'kidlaydi: *"Kruiz layneri bu yil Yevropa bo'ylab bir nechta mashxur portlarga sayohat qilmoqda"*. "Turistik oqim" katta guruh turistlarning harakatini ifodalab, suv oqimlarini eslatadi: *"Turistik oqim yoz faslida plyaj shaharlarida sezilarli darajada oshadi"*¹⁹.

Metaforalar sayyohlarning tanlash qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yorqin va jozibador metaforalardan foydalanib, turistik kompaniyalar nafaqat mijozlarning e'tiborini tortishi, balki ularning aynan o'z takliflaridan foydalanish istagini mustahkamlashi mumkin: *"Poytaxtning markazida qad rostlagan Temuriylar tarixi davlat muzeyi o'zining yuksak salohiyati va salobati bilan alohida ajralib turadi. Amir Temur xiyoboni go'zal bir uzuk bo'lsa, bu muzey shu uzukning yoqut ko'zidir"* (metafora). Bunday ta'rif ushbu koshonaning nainki ko'rk-tarovatiga, ayni chog'da undagi qadimiy, noyob osori atiqalarning mohiyati va ahamiyatiga ham taalluqlidir²⁰.

Turizm matnlarida metaforik nominatsiya muhim o'rin egallaydi. Zero, metaforik jarayon matn ekspressivligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metaforalar turistik matnlar tarkibida ham faol qo'llaniladi:

*"Visit shifting golden deserts (metafora: oltin saxro) which are magic parts of Qatar!"*²¹.

*"It is impossible to think about Asia without bazaars—just like the sky without a moon or a teahouse without tea"*²² (metafora: go'yo oysiz osmon yoki choysiz choyxona)".

Semantik usul bilan umumiste'moldagi leksemalardan yaratilgan turizmga oid terminlar ikkilamchi nominatsiya natijasida vujudga keladi. Bunday terminlar nomlash zarurati tufayli yaratilgan bo'lib, ular til va madaniyatga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Masalan, ingliz tilidagi "tour guide" termini o'zbek tiliga tarjima qilinganda, "yo'lboshlovchi", "destination" – "sayohatgoh", "greeter" – "kutib oluvchi", "doorman" – "eshik og'a", "broadway" – "sayilgoh", "camp" – "oromgoh", "floor maid" – "qavat oqsochi" kabi ma'nolarda keladi. Binobarin, sohaviy leksikaning muayyan tilning o'z so'z yasash imkoniyatlari, so'z yasash modellari asosida hosil qilinishida ularning milliy-madaniy xoslanishidan darak beradi.

Til – turli madaniy til hamjamiyatda mujassamlashgan milliy madaniyatlarni jamlovchi vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, til lug'aviy va ma'noviy tarzda butun ko'p qirrali madaniyatni, murakkab jamiyatni leksik va

¹⁹ <https://wanderingwheatleys.com> (Murojaat sanasi: 1.05.2024)

²⁰ <https://www.uzbekistan.travel> (Murojaat sanasi: 08.05.2024)

²¹ Uzbekistan airways, inflight magazine, 01 (114) 20023, ISSN 2181-8266.info@uzairways.com

²² <https://www.centralasia-travel.com> (Murojaat sanasi: 10.05.2024)

semantik jihatdan qamrab olishga qodir bo‘lgan bir dunyodir”²³. Zotan, madaniyat tushunchasi qadriyat, milliy urf-odatlar, taomillar, qarash va tasavvur qilish tizimlari hamda umumiy ijtimoiy me‘yorlarini qamrab oladi va bularning hammasi muayyan millat tilida o‘z aksini topadi.

O‘zbek tilida gastronomik turizmga oid quyidagi taom nomlari aniqlandi: *qozon kabob, shish kabob, somsa, halim, palov, sumalak, hasip, do‘lma, pashmak, xonim, shilpildoq, holvaytar, novvot, qurut, qatiq, tuxumbarak, qo‘tirbarak, qoqirim, nisholda, ayron, musallas, sharop, chuli, atala, quymoq, shirqovoq, chalpak, chakki, norin, qazi-qarta, go‘ja, gulchatoy* va h.k.

Ingliz tilida gastronomik turizmga oid quyidagi realiyalarni keltirish mumkin:

Angle cake – un, tuxum oqidan yog‘siz qilib tayyorlangan yengil, xalqa shaklidagi tort bo‘lib, usti yupqa shirinlik (glazur) bilan sirlangan; *Roll* – uzun nozik bulochka, *piping scone* – sulili non, *pudding* – puding-tuxum, un, sut, shakar qo‘shib bug‘da yoki duxovkada tayyorlangan yengil taom, pudingga ta‘bga qarab har narsa qo‘shib tayyorlash mumkin, mevalar qo‘shib dissert sifatida yoki go‘sht, kartoshka, yog‘ qo‘shib to‘yimli ovqat o‘rnida ham iste‘mol qilinadi. *Gingerbread* – imbirli pryanik, *brandy, whiskey* – alkogolli ichimlik, marmalade – odatda sitrus mevalariga shakar ko‘shib tayyorlangan shirinlik, *pantry* – bufet, oziq-ovqat mahsulotlari saqlanadigan omborxona, *porringer* – taom solib yeyish uchun idish, *cosy* – choynak ustiga tikilgan qoplama, *lunch basket* – yemak savati bo‘lib, pikniklar yoki boshqa joyda ovqatlanish maqsadida olib yuriladi.

